

**“TASDIQLANGAN”  
“O‘zkimyosanoat” AJ  
yagona aksiyadorining  
2023-yil 29–maydagi  
5-son qarori bilan**

**“O‘ZKIMYOSANOAT”  
AKSIYADORLIK JAMIYATINING  
“KUZATUV KENGASHI TO‘G‘RISIDA”GI NIZOMI  
(YANGI TAHRIR)**

**Toshkent – 2023-yil**

**I bo'lim.**  
**Umumiy qoidalar**

1.1. Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig'ilishlarining bayonnomalari bilan (11.02.2016-y. 02-02/1-187-son) va (27.04.2018-y. 24/1-989-son) tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalarining tavsiyalariga va "O'zkimyosanoat" AJ (matn bo'yicha Jamiyat) ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan hamda Jamiyat kuzatuv kengashi maqomini, funksiyalarini, huquqlarini (vakolatlarini) hamda majburiyatlarini, uning a'zolarini saylash va ularni ishlash tartibini belgilab beradi.

**II bo'lim.**  
**Jamiyat kuzatuv kengashining vakolatlari**

2.1. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

2.1.1. Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash.

2.1.2. Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, bundan O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 65-moddasining o'n birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

2.1.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash.

2.1.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini belgilash.

2.1.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash.

2.1.6. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish.

2.1.7. Mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish.

2.1.8. Qonunchilikda va mazkur ustavda nazarda tutilgan hollarda jamiyatning boshqaruv raisi va a'zolarini vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish.

2.1.9. Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.

2.1.10. Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek, har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish.

2.1.11. Jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin.

2.1.12. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish.

2.1.13. Jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish.

2.1.14. Dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish.

2.1.15. Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish.

2.1.16. Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish.

2.1.17. Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish.

2.1.18. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8- va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish.

2.1.19. Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish.

- 2.1.20. Aksiya va ulushlarga Jamiyat egalik qilayotgan korxonalar va tashkilotlarning boshqaruv organlarida Jamiyat nomidan uning vakillarini ovoz berish tartibini tasdiqlash.
- 2.1.21. Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish.
- 2.1.22. Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish.
- 2.1.23. Qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish.
- 2.1.24. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilangan chegara doirasida Jamiyatning boshqaruv raisi va a'zolariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash.
- 2.1.25. Xayriya (homylik) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash.
- 2.1.26. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan doirada, xayriya (homylik) yoki beg'araz yordam ko'rsatish bo'yicha qaror qabul qilish.
- 2.1.27. Jamiyat va sho'ba korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratish va samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha Jamiyat boshqaruviga tavsiyalar berish.
- 2.1.28. Qonunchilik, shuningdek, ichki qoidalar, shu jumladan, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi buzilishlar bo'yicha jamiyatda ichki tekshiruvlarni boshlash.
- 2.1.29. Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash.
- 2.1.30. Axborot siyosati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.
- 2.1.31. Kuzatuv kengashi qoshida Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi, Audit qo'mitasi, Tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi tashkil etish va ularning faoliyati tartibini belgilovchi nizomlarni tasdiqlash.
- 2.1.32. Jamiyat boshqaruvi raisiga xususiyashtirish jarayonlarini, shu jumladan, aksiyalarni ommaviy joylashtirishni (IPO) sifatli va belgilangan muddatlarda amalga oshirganligi uchun alohida mukofot yoki amalga oshirmaganlik uchun javobgarlik choralari belgilash.
- 2.1.33. Jamiyat boshqaruvi raisining transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari va loyiha ofisining xarajatlar smetasini tasdiqlash.
- 2.1.34. Jamiyat mulkini begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi, ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda kelishish.
- 2.2. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va Jamiyat ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.
- 2.3. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Boshqaruvga o'tkazilishi mumkin emas.

### ***III bo'lim.***

#### ***Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibi va uning a'zolarini saylash tartibi***

- 3.1. Jamiyat kuzatuv kengashining soni tarkibi 7 (yetti) kishidan iborat, shundan, 3 (uch) kishi mustaqil a'zo sifatida kuzatuv kengashi tarkibiga kiritiladi.
- 3.2. Jamiyatning davlat ulushi bo'yicha kuzatuv kengashi a'zolari sifatida saylanadigan shaxslar Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan berilgan korporativ boshqaruvchining malaka attestatiga ega bo'lishi lozim, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.
- 3.3. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylangan kuzatuv kengashi a'zosi mazkur yig'ilish bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki kuzatuv kengashining qaysi a'zosi mustaqil a'zo ekanligi ko'rsatilishi kerak.
- 3.4. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolariga nomzodlarni ko'rsatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
- 3.5. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.
- 3.6. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

3.7. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo'lgan mustaqil a'zolar va boshqa a'zolar soniga alohida ko'paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

3.8. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

3.9. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga Jamiyat ustavida va mazkur nizomda nazarda tutilgan kuzatuv kengashi a'zolaridan kamida 30 foizi mustaqil a'zolar – xalqaro tanlov asosida chet ellik soha mutaxassislarini (jumladan, vatandoshlarni) faol jalb etish orqali malakali xalqaro mutaxassislar kiritiladi.

#### ***IV bo'lim.***

##### ***Jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi***

4.1. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoliciga nomzodlar, jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan, qoida tariqasida, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishi uchun ushbu nizomning 3.9-bandiga muvofiq tanlov asosida ko'rsatiladi.

4.2. Quyidagilar kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

4.2.1. So'nggi uch yil ichida jamiyatda va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs.

4.2.2. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador.

4.2.3. Jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijoz va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi.

4.2.4. So'nggi uch yil ichida jamiyatga va (yoki) jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi.

4.2.5. Ketma-ket olti yil davomida jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs.

4.2.6. Jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno.

4.2.7. Jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek, erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs.

4.2.8. Davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs.

4.2.9. Jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

4.3. Jamiyat jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolarining reestrini yuritadi va uni o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

4.4. Jamiyat kuzatuv kengashi mustaqil a'zolarining reyestrini yuritish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

4.5. Jamiyat kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining ushbu nizomning 4.2-bandida belgilangan talablarga muvofiqligi o'zgargan taqdirda, u jamiyatni va kuzatuv kengashini bu haqda ikki ish kuni ichida xabardor qilishi shart. Bu holda ushbu nizomning 4.1-bandida belgilangan tartibda boshqa nomzod mustaqil a'zo sifatida taklif etiladi.

4.6. Jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi.

#### ***V bo'lim.***

##### ***Jamiyat kuzatuv kengashining raisi***

- 5.1. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.
- 5.2. Jamiyat kuzatuv kengashi o'z raisini kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.
- 5.3. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini ochadi va uning prezidiumi tarkibiga kiradi, boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari bilan Jamiyat nomidan mehnat shartnomalarni tuzadi.
- 5.4. Kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining raisining o'rinbosari amalga oshiradi, rais va uning o'rinbosari bo'lmagan taqdirda esa kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

#### ***VI bo'lim.***

#### ***Jamiyat kuzatuv kengashining kotibi***

- 6.1. Jamiyat kuzatuv kengashining kotibi kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi. Kuzatuv kengashi kotibi, qoida tariqasida, Jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi xodimi saylanadi.
- 6.2. Jamiyatning kuzatuv kengashi, kotibni kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.
- 6.3. Kuzatuv kengashining kotibi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.
- 6.4. Kuzatuv kengashi faoliyatini ta'minlash uchun kuzatuv kengashi kotibi barcha zarur choralarni ko'radi.
- 6.5. Kuzatuv kengashining kotibi:
- 6.5.1. Kuzatuv kengashining ish rejasi loyahasini tayyorlashni tashkillashtiradi.
- 6.5.2. Kuzatuv kengashi majlislarini chaqirish to'g'risidagi talabnomalarni qabul qiladi va xabarnomalarni yuboradi.
- 6.5.3. Ovoz berish byulletenlarni, kuzatuv kengashi majlislariga hujjatlar va materiallarni mazkur Nizomning 8.11 va 8.12 bandlariga muvofiq tarqatadi.
- 6.5.4. Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan to'ldirilgan ovoz berish byulletenlarni qabul qiladi.
- 6.5.5. Kuzatuv kengashi majlislari bayonnomalarni yuritadi va sirdan ovoz berish natijalari bo'yicha bayonnomalarni tayyorlaydi.
- 6.5.6. Mazkur nizomga, Jamiyatning ichki hujjatlariga va kuzatuv kengashi raisining topshiriqlariga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.
- 6.6. Mazkur nizomda nazarda tutilgan hujjatlar va materiallar kuzatuv kengashi kotibi olgan sana Kuzatuv kengashiga taqdim etilgan sana deb hisoblanadi.
- 6.7. Mazkur nizomning ilovasiga muvofiq kuzatuv kengashi kotibi kuzatuv kengashida ishlaganligi uchun haq (mukofot) va xarajatlarning kompensatsiyasini oladi.

#### ***VII bo'lim.***

#### ***Jamiyat kuzatuv kengashining ish rejasi***

- 7.1. Kuzatuv kengashi majlislari uning ish rejasi asosida, lekin chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Kuzatuv kengashining ish rejasi Kuzatuv kengashi, Boshqaruv, Taftish komissiyasi, Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalarning raisi va a'zolari hamda Jamiyatning auditori takliflariga muvofiq Kuzatuv kengashi kotibi tomonidan shakllantiriladi.
- 7.2. Kelgusi yilning Kuzatuv kengashining ish rejasiga takliflar 15-yanvardan kechiktirmay kiritiladi.
- 7.3. Kuzatuv kengashining ish rejasiga masalalarni kiritish bo'yicha taklif:
- 7.3.1. Taklifni kiritgan shaxs (organ) haqidagi ma'lumotlarni.
- 7.3.2. Kuzatuv kengashi ko'rib chiqishiga taklif etilayotgan masalalar ta'rifini.
- 7.3.3. Masalalarga izohli materiallarni.
- 7.3.4. Taklif etilayotgan masalani ko'rib chiqish muddatlarini.
- 7.3.5. Taklifni kiritgan shaxsning (organ rahbarining) imzosini o'z ichiga olishi kerak.

7.4. Ish rejani tayyorlanishi nazoratini kuzatuv kengashi raisi amalga oshiradi.

7.5. Ish reja kuzatuv kengashi raisining taklifiga ko'ra kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

### **VIII bo'lim.**

#### **Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini chaqirish**

8.1. Kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Jamiyat kuzatuv kengashi, boshqaruv, taftish komissiyasi a'zosining, boshqaruv raisining yoki ichki audit xizmati boshlig'i talabiga ko'ra chaqiriladi.

8.2. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning kuzatuv kengashi majlisini chaqirilishini talab qilishga haqli.

8.3. Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish to'g'risidagi talabnoma quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

8.3.1. Taklifni kiritgan shaxs (organ) haqidagi ma'lumotlarni.

8.3.2. Majlis kun tartibi masalalarining ta'rifini.

8.3.3. Ushbu masalalarni qo'yish sabablarini.

8.3.4. Masalalarni ko'rib chiqish uchun zarur hujjatlarni va boshqa materiallar.

8.3.5. Majlis chaqirilishini talab qilgan shaxsning (organ rahbarining) imzosi.

8.3.6. Majlis chaqirilishini talab qilgan aksiyadorning depo hisob varag'ida ko'chirmani o'z ichiga olishi kerak.

8.4. Talabnomani kiritgan shaxs kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish sanasini va kun tartibidagi tegishli masalalar bo'yicha qarorlar loyihasini taklif qilishi mumkin.

8.5. Majlis o'tkazish sanasini o'z ichiga olgan majlisni chaqirish to'g'risidagi talabnoma taklif etilgan sanaga qadar 15 kalendar kundan kechiktirmay kuzatuv kengashiga taqdim etiladi, kechiktirib bo'lmaydigan xususiyatga ega masalalar bo'yicha talabnomalar bundan mustasno.

8.6. Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish to'g'risidagi talabnoma taqdim etilgan kundan boshlab 5 kalendar kun mobaynida kuzatuv kengashining raisi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

8.6.1. Agar qonunchilikda kiritilgan masala bo'yicha qaror qabul qilish uchun boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, 15 kalendar kun mobaynida kuzatuv kengashi majlisini chaqirish va navbatdagi majlis kun tartibiga masalani kiritish to'g'risida;

8.6.2. Majlis chaqirilishini rad etish to'g'risida va bu haqda kuzatuv kengashi a'zolarini, Jamiyatning boshqaruvi raisini xamda talabnoma taqdim etgan shaxsni (organ rahbarini) xabardor qiladi.

8.7. Kuzatuv kengashi raisi agar masala vakolatlanmagan shaxs tomonidan kiritilgan bo'lsa yoki kuzatuv kengashi vakolatiga kirmasa, shuningdek, agar kuzatuv kengashi majlisini chaqirish to'g'risidagi talabnomada mazkur nizomning 8.3.1 - 8.3.6- kichik bandlarida nazarda tutilgan ma'lumotlar bo'lmasa, kuzatuv kengashi majlisi chaqirilishini rad etishga haqli.

8.8. Kuzatuv kengashi raisi kuzatuv kengashi majlislarini quyidagi hollarda chaqirishga majbur:

8.8.1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masalalarni kiritish va Jamiyatning boshqaruv hamda nazorat organlariga nomzodlarni qo'yish to'g'risidagi aksiyadorlarning takliflarini ko'rib chiqish uchun.

8.8.2. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida va uni chaqirish hamda o'tkazish bilan bog'liq qonunchilikda, Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa masalalar bo'yicha qarorlarni qabul qilish uchun.

8.8.3 Jamiyatning yillik hisobotini tasdiqlash uchun.

8.8.4. Kuzatuv kengashining yangi tarkibini va yoki Jamiyat boshqaruvini shakllantirish masalalar bo'yicha aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun.

8.9. Kuzatuv kengashining navbatdagi majlisining kun tartibi kuzatuv kengashi raisi tomonidan kuzatuv kengashi ish rejasiga, shuningdek, amaldagi qonunchilik va mazkur nizomga muvofiq majlisni chaqirish to'g'risidagi shaxslarning (organlarning) kelib tushgan talabnomalariga asosan shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

- 8.10. Kun tartibi loyihasi majlis sanasidan kamida 10 kalendar kundan kechiktirmay Jamiyat boshqaruv raisiga yuboriladi va uning takliflari bo'lmagan taqdirda, kun tartibi loyihasi yuborilgan kundan 3 kalendar kuni o'tgach kuzatuv kengashi raisi tomonidan tasdiqlanadi.
- 8.11. Kuzatuv kengashi majlis sanasidan kamida 5 kalendar kundan kechiktirmay kuzatuv kengashi raisi barcha kuzatuv kengashi a'zolariga kuzatuv kengashi majlisini chaqirish to'g'risidagi yozma xabarnoma yuboradi:
- 8.11.1. Majlis sanasi, joyi va vaqtini (majlis bevosita qatnashish yo'li bilan o'tkazilayotgan holatida).
- 8.11.2. Majlisga taklif etilgan shaxslar ro'yxatini (majlis bevosita qatnashish yo'li bilan o'tkazilayotgan xolatida).
- 8.11.3. Majlisning kun tartibidagi masalalarni aks etgan xolda.
- 8.12. Xabarnomaga quyidagilar ilova qilinadi:
- 8.12.1. Kuzatuv kengashi qarorlarining loyihalari.
- 8.12.2. Taklif etilgan qarorning qabul qilish zarurligi asoslari.
- 8.12.3. Hujjatlar va boshqa informatsion materiallar.
- 8.12.4. To'ldirilgan byulletenni kuzatuv kengashiga taqdim etish sanasini ko'rsatgan holda ovoz berish byulleteni ilova qilinadi (majlis sirdan ovoz berish yo'li bilan o'tkazilayotgan holatida).
- 8.13. Yozma xabarnomalar kuzatuv kengashi a'zolariga pochta, faks, telegraf, teletayp, elektron va boshqa aloqa vositalari orqali yuboriladi.
- 8.14. Xizmat va tijorat sirini tashkil etadigan axborotlarni o'z ichiga olgan maxfiy xarakterga ega kuzatuv kengashi qarorlari loyihasi va materiallar kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun "maxfiy" grifi bilan taqdim etiladi.

### ***IX bo'lim.***

#### ***Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish tartibi***

- 9.1. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum Jamiyat ustavida belgilanadi, biroq u Jamiyat kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75 % dan kam bo'lmasligi kerak.
- 9.2. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar kuzatuv kengashining majlisini chaqirish va o'tkazish tartibini belgilovchi ushbu nizomda, qonunchilikda yoki Jamiyat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.
- 9.3. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda, kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.
- 9.4. Kvorum mavjudligini va kun tartibidagi masalalarga ovoz berish natijalarini aniqlashda, oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadigan kun tartibidagi masalalar bo'yicha majlisda qatnashmayotgan kuzatuv kengashi a'zosining yozma fikri agar bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga rioya qilingan bo'lsa, inobatga olinishi mumkin:
- 9.4.1. Kuzatuv kengashi majlis boshlanguniga qadar masala bo'yicha yozma fikrni olgan bo'lsalar.
- 9.4.2. Taklif etilgan qaror loyihasi bo'yicha "yoqlab" yoki "qarshi" ovoz berganligini yoxud qaror qabul qilinishidan "betaraf" bo'lganligini yozma fikrida ko'rsatgan holda masala bo'yicha kuzatuv kengashi a'zosi o'z nuqtayi nazarini aniq belgilagan bo'lsa.
- 9.5. Taklif etilgan qaror loyihasi bo'yicha tuzatishlar va izoxlarni o'z ichiga olgan yozma fikr kuzatuv kengashi raisi qaroriga ko'ra inobatga olinishi mumkin. Bunday holatda Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasiga tegishli yozuvlar kiritiladi va taklif etilgan tuzatishlar va izohlar bo'yicha kuzatuv kengashi raisining qarorini inobatga olgan holda, kun tartibidagi masala bo'yicha qaror qabul qilinadi.
- 9.6. Agar yozma fikr kuzatuv kengashi a'zolariga majlis haqidagi xabarnoma bilan birga yuborilmagan bo'lsa, raislik qiluvchi yozma fikrni majlisda o'qib eshittiradi.
- 9.7. Yozma fikrlar kvorum mavjudligini va har bir masalaga ovoz berish natijalarini aniqlashda alohida hisobga olinadi va majlis bayonnomasida aks ettiriladi.
- 9.8. Kvorum mavjudligini va masalalarga ovoz berish natijalarini aniqlashda ularni hal qilish uchun malakali ko'pchilik ovoz yoki yakdillik talab qilinsa, yozma fikrlarni hisobga olishga yo'l qo'yilmaydi.
- 9.9. Quyidagi masalalar bo'yicha kuzatuv kengashi qarorlari barcha saylangan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi:

- 9.9.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risidagi masalalarni kiritish.
- 9.9.2. Sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) qabul qilinadigan qarorlar.
- 9.9.3. Korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish.
- 9.9.4. O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8- va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish to'g'risidagi qarorlar.
- 9.10. Quyidagi masalalar bo'yicha kuzatuv kengashi qarorlari ovoz berishda qatnashayotgan kuzatuv kengashi a'zolarining to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi:
- 9.10.1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirilishini rad etish.
- 9.10.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masalani yoki nomzodni Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish.
- 9.11. Kuzatuv kengashi a'zolari majlislarda shaxsan ishtirok etishi shart. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z vakillarini kuzatuv kengashi majlisida maslahat ovozi bilan qatnashish uchun yuborishiga yo'l qo'yiladi.
- 9.12. Majlisda videokonferensaloqa orqali qatnashish istagini bildirgan kuzatuv kengashi a'zosi majlis o'tkaziladigan sanaga qadar ikki kun oldin kuzatuv kengashi raisini bu haqda xabardor qilishi kerak.
- 9.13. Kuzatuv kengashi a'zolarining har bir bitta ovozga ega bo'ladi. Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini boshqa shaxsga, shu jumladan, kuzatuv kengashining boshqa a'zosi berishiga yo'l qo'yilmaydi.
- 9.14. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda, kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi bo'ladi.
- 9.15. Texnik vositalar mavjud bo'lgan taqdirda, kuzatuv kengashining majlislari videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishi mumkin.
- 9.16. Kuzatuv kengashi majlisi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilganda, majlis bayonnomasida majlis videokonferensaloqa rejimida o'tkazilganligi haqida ko'rsatiladi.
- 9.17. Videokonferensaloqa rejimida o'tkazilgan majlislarda kuzatuv kengashi vakolatlariga kiradigan barcha masalalar ko'rib chiqilishi mumkin.

**X bo'lim.**  
**Sirdan ovoz berish tartibi**

- 10.1. Kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.
- 10.2. Sirdan ovoz berishni o'tkazish bo'yicha qarorni kuzatuv kengashining raisi qabul qiladi.
- 10.3. Sirdan ovoz berishni o'tkazish uchun kuzatuv kengashi a'zolarining barchasiga mazkur Nizomning 8.11-, 8.12- bandlari va 8.11.1- 8.11.3-, 8.12.1 – 8.12.4- kichik bandlar talablariga javob beradigan sirdan ovoz berishni o'tkazish to'g'risida xabarnoma yuboriladi.
- 10.4. Ovoz berish byulletenlarida kuzatuv kengashiga to'ldirilgan byulletenni taqdim etish sanasi to'g'risidagi ko'rsatma bo'lishi kerak.
- 10.5. Kuzatuv kengashiga to'ldirilgan byulletenni taqdim etilishi belgilangan sanasidan kamida 5 kalendar kundan kechiktirmay kuzatuv kengashi a'zolariga sirdan ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi yozma xabarnoma yuboriladi.
- 10.6. Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan to'ldirilgan va o'z qo'li bilan imzolangan ovoz berish byulletenlari kuzatuv kengashi kotibga topshiriladi.
- 10.7. Ovozlarni hisoblashda to'ldirilgan ovoz berish byulletenini belgilangan muddatda taqdim etgan kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari hisobga olinadi.
- 10.8. Ovoz berilganida ovoz beruvchi qaysi masala bo'yicha ehtimol tutilgan ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldirgan bo'lsa, o'sha masala bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinadi. Mazkur talabni buzgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas, deb topiladi va ulardagi masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi. Agar ovoz berish byulletenida ovozga qo'yilgan bir nechta masala ko'rsatilgan bo'lsa, bir yoki bir nechta masalaga nisbatan mazkur bandeda ko'rsatilgan talabga rioya etilmaganligi byulletenning umuman haqiqiy emas, deb topilishiga sabab bo'lmaydi.



10.9. Sirdan ovoz berish yakunlariga ko'ra kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi tuziladi.

### ***XI bo'lim.***

#### ***Kuzatuv kengashi qarorlarining rasmiylashtirilishi tartibi***

11.1. Kuzatuv kengashining majlisida Kuzatuv kengashi kotibi tomonidan bayonnoma yuritiladi.

11.2. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay tuziladi.

11.3. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

11.3.1. Majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy.

11.3.2. Majlisda hozir bo'lgan shaxslar.

11.3.3. Majlisning kun tartibi.

11.3.4. Ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari.

11.3.5. Qabul qilingan qarorlar.

11.4. Kuzatuv kengashi tomonidan qarorlar sirdan ovoz berish yo'li bilan qabul qilinganda (sirdan ovoz berish) majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

11.4.1. Bayonnoma tuzilgan sana.

11.4.2. Ushbu sanaga imzolangan ovoz berish byulletenlarini taqdim etgan kuzatuv kengashi a'zolari.

11.4.3. Kun tartibi.

11.4.4. Ovoz berishga qo'yilgan masalalar, va ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari.

11.4.5. Qabul qilingan qarorlar ko'rsatiladi.

11.5. Majlis bayonnomasi (sirdan ovoz berish) to'ldirilgan byulletenlarni taqdim etish uchun belgilangan sanasidan so'ng o'n kalendar kundan kechiktirmay tuziladi.

11.6. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

11.7. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi bayonnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan va unga ilova qilingan imzolangan byulleten mavjud bo'lgan hollarda barcha kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ham imzolangan deb hisoblanadi. Bunday xolatda bayonnoma kuzatuv kengashi raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

11.8. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning boshqaruviga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning boshqaruviga kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

11.9. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomalari Jamiyatning taftish komissiyasi va auditoriga ularning talabiga ko'ra taqdim etiladi.

### ***XII bo'lim.***

#### ***Kuzatuv kengashi a'zolarining huquq va majburiyatlari***

12.1. Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

12.1.1. Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashish, yig'ilishda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish.

12.1.2. Muayyan davr uchun Jamiyat faoliyati va uni rivojlantirish rejalari to'g'risidagi barcha zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish.

12.1.3. Mazkur nizomning ilovasiga muvofiq kuzatuv kengashida ishlaganligi uchun o'z vazifalarini bajarib turgan davrga, haq to'lash va xarajatlarning kompensatsiyasini, shu bilan birga, mukofot puli olish.

12.1.4. Qonunchilikda va Jamiyat ustavida nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

12.2. Kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasida vazifalar kuzatuv kengashi raisi tomonidan kuzatuv kengashning har bir a'zosi uchun aniq taqsimlanadi.

12.3. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab vijdonan va oqilona ish tutishi, ularga ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni va xizmat hamda tijorat sirini tashkil etuvchi Jamiyat hujjatlarini oshkora qilmasliklari lozim.

12.4. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z mavqeini va Jamiyat faoliyati haqida olingan ma'lumotlarni shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga, shuningdek, ushbu ma'lumotlarni boshqa shaxslar tomonidan shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga yo'l qo'ymasliklari lozim.

12.5. Kuzatuv kengashi a'zolari kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashishlari shart. Agar majlisda qatnashish imkoniyati mavjud bo'lmasa, kuzatuv kengashi a'zosi sabablarini ko'rsatgan holda kuzatuv kengashini bu haqda xabardor qiladi. Bir vaqtning o'zida kuzatuv kengashi a'zosi mazkur Nizomga muvofiq kun tartibidagi masalalar yuzasidan yozma fikrini yuborishga haqli.

12.6. Affilangan shaxs bo'lgan kuzatuv kengashi a'zosi Jamiyat bilan bitim tuzishda o'zning affilanganligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan, bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali Jamiyatni xabardor etishi shart.

12.7. Yuqorida qayd etilgan Jamiyat kuzatuv kengashi a'zosi Jamiyatning kuzatuv kengashi mazkur bitim yuzasidan qaror qabul qilayotganda muhokamada ishtirok etishga haqli emas va ovoz berish huquqiga ega emas.

12.8. Jamiyat bitim tuzishda Jamiyat kuzatuv kengashi a'zosi affilangan shaxs ekanligini e'tirof etish O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 9-bobi talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

12.9. Kuzatuv kengashi a'zosi har qanday bitim tuzilishida yoki Jamiyatga bevosita tegishli har qanday masalada muhim manfaatdorligi (to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita yoki uchinchi shaxslar nomidan) to'g'risidagi ma'lumotlarni Jamiyat kuzatuv kengashiga yetkazishga majbur.

### **XIII bo'lim.**

#### **Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi**

13.1. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda qonunchilikda va Jamiyat ustavida belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

13.2. Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

13.3. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

13.4. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan kuzatuv kengashining a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

13.5. Sud Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosini Jamiyatga mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, ushbu a'zoning vakolatlari sudning qaroriga ko'ra, uning xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallashi taqiqlangan holda, bir yildan kam bo'lmagan muddatga tugatilishi mumkin.

13.6. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi quyidagilar natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:

- chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;

- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;

- jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan, jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari yoki o'z affilangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik.

**XIV bo'lim.**

**Boshqaruvchilar kengashining qo'mitalari (ish guruhlari)**

14.1. Jamiyatning kuzatuv kengashi asosli va samarali qarorlarni qabul qilinishini ta'minlash maqsadida, shu jumladan, nizoli holatlarni aniqlash va hal qilish uchun tegishli masalalar bo'yicha doimiy va vaqtincha faoliyat yurituvchi qo'mitalar (ishchi guruhlar) tuzishga haqli.

14.2. Qo'mitalarning (ishchi guruhlarning) asosiy funksiyalari ularning faoliyat yo'nalishi bo'yicha kuzatuv kengashi vakolatiga kiradigan masalalarni dastlab har tomonlama o'rganish va kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash.

14.3. Jamiyat kuzatuv kengashining qo'mitalari (ishchi guruhlari) kuzatuv kengashi, boshqaruv a'zolari, Jamiyat xodimlari va jalb qilingan ekspertlardan (tegishli ixtisos mutaxassislari, ixtisoslashgan OO'Y o'qituvchilar tarkibi va boshqalar) shakllantiriladi. Qo'mitalar (ishchi guruhlar) vakolatlari va faoliyat ko'rsatish tartibi ularni tashkil etish to'g'risidagi Jamiyat kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanadi.

14.4. Jamiyat kuzatuv kengashining ishchi guruhlari Jamiyat faoliyatining alohida yo'nalishlarini va loyihalarini o'rganish uchun shakllantiriladi.

14.5. Qo'mitalar va ishchi guruhlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyatning ustavi va ichki nizomlar, xamda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Jamiyat kuzatuv kengashi qarorlariga muvofiq harakat qiladi.

14.6. Jamiyatda faqat Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan tarkib topgan Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi, Audit qo'mitasi, Tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi tashkil etiladi.

**XV bo'lim.**

**Yakuniy qoidalar**

15.1. Mazkur nizom aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

15.2. Agar mazkur Nizomni biron-bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.

15.3. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi yoxud Jamiyat ustavida mazkur nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Jamiyat ustavi qoidalari qo'llaniladi.

15.4. Ushbu nizom aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab avval tasdiqlangan "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom va unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.